

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

YUNUSALIYEV NURITDIN YUNUSALI O‘G‘LI

**ZnO_{1-x}S_x PLYONKALARINING TUZILMAVIY, MORFOLOGIK VA
OPTIK XUSUSIYATLARIGA γ -NURLANISH TA‘SIRI**

01.04.07 - Kondensirlangan holat fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical - mathematical sciences**

Yunusaliyev Nuritdin Yunusali o'g'li

ZnO_{1-x}S_x plyonkalarining tuzilmaviy, morfologik va optik xususiyatlariga γ -
nurlanish ta'siri3

Юнусалиев Нуритдин Юнусали угли

Влияние γ -излучения на структурные, морфологические и оптические
свойства плёнок ZnO_{1-x}S_x21

Yunusaliyev Nuritdin Yunusali ugli

Influence of γ -radiation on the structural, morphological, and optical properties of
ZnO_{1-x}S_x films41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных научных работ
List of published research works49

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

YUNUSALIYEV NURITDIN YUNUSALI O‘G‘LI

**ZnO_{1-x}S_x PLYONKALARINING TUZILMAVIY, MORFOLOGIK VA
OPTIK XUSUSIYATLARIGA γ -NURLANISH TA‘SIRI**

01.04.07 - Kondensirlangan holat fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/FM1250 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zaynabidinov Sirajidin
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Turg'unov Nozimjon Abdumannopovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Otajonov Salim Madrahimovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiyaning himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "13" 08 soat "10⁰⁹" dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86-uy. Tel: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, ye-mail: uzferfizika@mail.ru, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan institutning axborot-resurs markazi ilmiy-uslubiy bo'limida tanishish mumkin. (№ 531 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86-uy. Tel: (+99873) 241-12-06.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "8" 08 kuni tarqatildi.
(2025-yil "8" 08 dagi "4" raqamli reyestr bayonnomasi).



N.X. Yuldashev
Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash raisi, f-m.f.d., professor

B.J. Axmadaliyev
Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f-m.f.b.f.d (PhD)

N.A. Sultonov
Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda nanoelektronika, optoelektronika va sensor texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yuqori sezuvchanlikka ega, ko‘p funksiyali va tezkor ishlovchi zamonaviy elektron qurilmalarni yaratish, shuningdek, mavjud tizimlarni takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida ana shunday ilg‘or elektron qurilmalarni ishlab chiqarish jarayoni metalloksid plyonkalarni o‘stirishni, ularni kirishma atomlari bilan legirlashni, bu jarayonlarni aniq termodinamik sharoitlarda amalga oshirishni, shuningdek, hosil bo‘lgan materiallarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, an‘anaviy legirlash usullarida turli kamchiliklar kuzatilayotgani bois, so‘nggi yillarda plyonka sirtida metalloksid kristallitlarini tashqi ta’sirlar ostida shakllantirish orqali ularning xususiyatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan yangi yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda ko‘plab yetakchi olim va mutaxassislar tomonidan metalloksid plyonkalarni o‘stirish, ularning sirtida noyob xususiyatlarga ega kristallitlarni tashqi ta’sirlar ostida shakllantirish hamda kirishma atomlari bilan legirlash bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, rux, kislorod hamda nometall elementlarni oyna va yarimo‘tkazgichli tagliklarga qoplash orqali hosil bo‘ladigan plyonkalarda tashqi ta’sirlar natijasida yuzaga keladigan nuqsonlar shakllanish jarayonini samarali boshqarish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar ustuvor ilmiy yo‘nalish sifatida e‘tirof etilmoqda. Shu bilan birga, metalloksid qatlamlarni turli elementlar bilan legirlash va ularni γ -nurlanish yordamida qayta ishlash orqali kristallit o‘lchamlarini sezilarli darajada kichraytirish mumkin bo‘lib, bu jarayon nanotuzilmali va ko‘p funksiyali optoelektron mahsulotlar yaratishga qaratilgan tadqiqotlarning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yuqori sifatli elektron materiallar va tuzilmalarni olish texnologiyalarini takomillashtirish, shu asosda ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini jahon standartlari darajasiga olib chiqishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham elektrotexnika sohasida ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirishga doir vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, ZnO:S va ZnO:N kabi yupqa plyonkalardan foydalanish orqali optik o‘tkazuvchanlik va yutilish spektrini kengaytirish, shuningdek, ushbu materiallar asosida ilg‘or optoelektron va sensor qurilmalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son “Energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni¹, 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son “Iqtisodiyotning

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son “Energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni / <https://lex.uz/uz/docs/-6189000>

energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"², 2021-yil, 19-martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"³ Qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'lgan III va IV yo'nalishlarga to'la mos keladi. Jumladan, III ustuvor yo'nalish – "Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozlikni rivojlantirish" hamda IV ustuvor yo'nalish – "Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar yaratish" kabi ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy va oliy ta'lim muassasalarida ZnO asosidagi, oltingugurt (S) kirishma atomlari bilan legirlangan metalloksid plyonkalarini o'stirishning optimal texnologik sharoitlarini aniqlash, ularning noyob fizik xossalarni o'rganish va turli elektron hamda optoelektron qurilmalarda qo'llash imkoniyatlarini baholash bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, C.Kim, S.J.Doh va S.G.Leye rahbarligidagi ilmiy guruh tomonidan S atomlari bilan legirlangan ZnO metalloksid plyonkalarining turli fizik xossalari o'rganilgan. Xususan, X.Y.Xiye, P.Zhan va L.Y.Li kabi tadqiqotchilarning ishlarida ZnO tarkibiga S atomlarining kiritilishi panjara doimiylari hamda subkristallit o'lchamlarining ortishiga, shuningdek, diffraksiya cho'qqilarining kichik burchaklar tomon siljishiga olib kelishi aniqlangan. V.Kumari boshchiligidagi ilmiy guruh esa o'z tadqiqotlarida ZnO plyonkalariga kam miqdorda S atomlari kiritilganida geksagonal vyursit tuzilishi saqlanishi, yuqori konsentratsiyalarda esa ZnS, S, Zn₂(OH)₂SO₄, ZnSO₃ va ZnSO₄ kabi yangi fazalarning hosil bo'lishiga e'tibor qaratgan. H.Sato, H.Nanto, S.Tanaka, shuningdek, S.B.Zhang, S.H.Wei va A.Zunger tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda S atomlari bilan legirlash orqali ZnO materialining taqiqlangan soha kengligini kamaytirish, tuzilmaning barqarorligini oshirish va ko'zga ko'rinuvchi nurlanish diapazonidagi fotosezgirlikni kuchaytirish mumkinligi aniqlangan. X.H.Wang, S.Liu va P.Chang tadqiqotlarida esa elektrokimyoviy usulda sintez qilingan S atomlari bilan legirlangan ZnO nanoo'ralarida ultrabinafsha nurlanishning kamayishi va yashil diapazonda nurlanishning kuchayishi qayd

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori / <https://www.lex.uz/uz/docs/-4890081>

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil, 19-martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / <https://lex.uz/docs/-5338558>

etilgan. Ushbu o'zgarishlar asosan kislorod vakansiyalarining ortishi bilan izohlangan. C.L.Hsu boshchiligidagi ilmiy guruh tomonidan ZnO:S asosida moslashuvchan nanogeneratorlar uchun nanotuzilmalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yuqori mexanik sezgirlikka ega ekani hamda S legirlovchi element sifatida tuzilmaning moslashuvchanligini oshirishi amalda isbotlangan.

Respublikamizda ham yetakchi olimlardan akademik S.Z.Zaynabidinov rahbarligidagi ilmiy guruhlar tomonidan yarimo'tkazgichli oksidli materiallar, xususan, ZnO asosidagi tuzilmalarning xossalari o'rganish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlar, asosan, ZnO materialini turli metall va nometall elementlar bilan legirlash orqali uning tuzilmaviy, elektrofizik va fotoelektrik xossalarini boshqarishga qaratilgan. Shuningdek, professor Sh.U.Yuldashev rahbarligida ultratovushli purkash usuli orqali ZnO asosidagi *p-i-n* tuzilmalarni sintez qilish imkoniyatlari o'rganilgan va ushbu tuzilmalarda elektrolyuminessensiya hodisasi aniqlangan. Bu hodisa ZnO kristallarida legirlash natijasida vujudga kelgan nuqsonli holatlar bilan bog'liq bo'lib, yangi avlod elektron qurilmalari uchun istiqbolli yechim sifatida baholangan.

Shu bilan birga, ZnO asosidagi yupqa qatlamlarga turli S kirishma atomlarini kiritish orqali ularning noyob fizik xossalarini boshqarish, shuningdek, ular asosida geterotuzilmalar hosil qilish imkoniyatlari ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, bu qatlamlarning xossalariga ta'sir etuvchi tashqi omillar (harorat, nurlanish, bosim va boshqalar) yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti 2017–2020-yillar davomida amalga oshirilgan va Andijon davlat universitetining OTM-2-68-raqamli “Kristallarda kirishma-nuqson turidagi mikro- va nanobirikmalarning hosil bo'lish mexanizmlari va ularning keng funksional imkoniyatli ko'p qatlamli tuzilmalar yaratishdagi o'rni” mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: ZnO_{1-x}S_x plyonkalarini ultratovushli spreypiroliz usuli yordamida o'stirish, ularning tuzilmaviy, morfologik va optik xususiyatlarini o'rganish hamda ularga γ -nurlanish ta'sirini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ultratovushli spreypiroliz usuli yordamida monokristall kremniy tagliklarida ZnO_{1-x}S_x plyonkalarini o'stirishning optimal texnologik sharoitlarini aniqlash;

o'stirilgan plyonkalar sirtida shakllangan nanokristallarning morfologiyasi, geometrik o'lchamlari va fazaviy tuzilishini (panjara turi va fazo guruhi) tadqiq qilish;

γ -nurlanishning ($5 \cdot 10^6$ rad) ZnO_{1-x}S_x plyonkalari va nanostrukturalariga ta'sirini o'rganish va uning tuzilmaviy hamda morfologik o'zgarishlarga ta'sirini tahlil qilish;

ZnO_{1-x}S_x plyonkalarida γ -nurlanish ta'sirida yuzaga keladigan elektrofizik (elektr o'tkazuvchanlik, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va harakatchanligini) o'zgarishlarni aniqlash;

γ -nurlanish ta'sirida ZnO_{1-x}S_x plyonkalarining taqiqlangan soha kengligidagi o'zgarishlarni optik o'tkazuvchanlik ma'lumotlari asosida baholash va tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ultratovushli sprej-piroliz usuli yordamida monokristall kremniy tagliklariga o‘stirilgan $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari olingan.

Tadqiqotning predmeti ultratovushli sprej-piroliz usulida $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarini o‘stirishning optimal texnologik sharoitlarini aniqlash, γ -nurlanishning ($5 \cdot 10^6$ rad) $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalariga va ularda shakllangan turli kristallitlariga ta‘sirini o‘rganish, shuningdek, $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarining taqiqlangan soha kengligidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarining tuzilmaviy tahlili uchun XRD-7000 rentgen difraktometridan, morfologik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun IT200 (JEOL) skanerlovchi elektron mikroskopi va Solver Next atom-kuch mikroskopidan, optik xossalarni aniqlash uchun Cary Eclipse spektrometridan hamda namunalarning elektrofizik xususiyatlarini tadqiq etishda HMS-7000 foydalanilgan. Olingan eksperimental natijalar OriginPro 2022 dasturi yordamida tahlil qilindi va vizual shaklda taqdim etilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk marotaba ultratovushli sprej-piroliz usulida (tebranish chastotasi 2,4 MHz, piroliz vaqti 30 daqiqa, taglik va purkagich boshi orasidagi optimal masofa 30 sm, isitgich harorati doimiy 500 °C) (100) kristallografik yo‘nalishga mansub, panjara doimiylari $a = b = 0,3265$ nm va $c = 0,5212$ nm bo‘lgan geksagonal elementar katakchadan tashkil topgan $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari o‘stirilgan;

rentgenotuzilmaviy tadqiqotlar natijasida $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari sirtida panjara doimiysi $a = 0,7598$ nm bo‘lgan kub elementar katakchaga ega, o‘lchami 57 nm dan 200 nm gacha bo‘lgan nanokristallarning shakllanishi aniqlangan;

γ -nurlanishlar ta‘sirida $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkasining kristall panjara doimiysi 0,031 nm ga ortishi, ularning sirtiy sohalarida shakllangan nanokristallarning geometrik o‘lchamlari 12 nm ga kamayishi aniqlangan;

$5 \cdot 10^6$ rad dozali γ -nurlanishdan so‘ng $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarining solishtirma qarshiligi 3,5 $\Omega \cdot \text{sm}$ ga, tok tashuvchilar harakatchanligi 0,13 $\text{sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$ ga kamayishi va ularning konsentratsiyasi esa $8,1 \cdot 10^{17} \text{sm}^{-3}$ ga ortishi aniqlangan;

γ -nurlanishlar ta‘sirida $ZnO_{1-x}S_x$ qatlamlarida vakansiyalar, dislokatsiyalar hamda chuqur sathli nuqsonlar miqdorining ortishi tufayli ularning taqiqlangan soha kengligi 3,26 eV dan 3,19 eV gacha kamayishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarining optik xossalari tahlili asosida, ularni fotovoltaik tizimlarda yupqa qatlam, hamda optoelektron qurilmalarda fotoaktiv qoplama va sensorli element sifatida qo‘llash imkoniyatlari aniqlangan;

$ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarining γ -nurlanishga sezgirligi o‘rganilib, ularni radiatsiya sensori (monitor) sifatida qo‘llash istiqbolli ekani tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi jahon amaliyotida qo‘llanilayotgan yuqori aniqlikka ega zamonaviy rentgen difraktometri, atom-kuch mikroskopi, shuningdek, elektr va optik xossalarni tahlil qiluvchi ilg‘or uskunalardan foydalanishga asoslanadi. Tadqiqotda olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar ma‘lumotlari bilan taqqoslandi, yaxshi sinovdan o‘tgan hamda o‘zaro bog‘lanmagan

kompleks eksperimental usullar qoʻllanildi. Shuningdek, natijalarning takrorlanish imkoniyati, fizik hodisalarga oid umumiy nazariy tasavvurlar bilan xulosalarning izchilligi hamda ularning umumiy fizik qonunlar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tahlil etilishi taʼminlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati $ZnO_{1-x}S_x$ asosidagi shaffof plyonkalarda γ -nurlanish taʼsirida yuzaga keladigan tuzilmaviy, morfologik va optik oʻzgarishlarning qonuniyatlari ilmiy asoslangan holda aniqlangani, shuningdek, olingan parametrlar va tahlil natijalarining boshqa shunga oʻxshash nurlanishga sezgir materiallarning fizik xossalarini oʻrganishda va tadqiqotlar olib borishda qoʻllash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati $ZnO_{1-x}S_x$ asosidagi materiallarni yuqori samaradorlikka ega koʻp funksiyali fotosezgir elektron asboblari, shaffof elektronika va quyosh elementlari ishlab chiqarishda, fotovoltaik tizimlarda yupqa qatlamli aktiv modda, optoelektron qurilmalarda esa fotoaktiv qoplama yoki sezgir element, shuningdek, radiatsiya monitorlari sifatida qoʻllash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Monokristall kremniy tagliklarida $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarini takomillashtirilgan ultratovushli sprej-piroliz usuli yordamida oʻstirish, shuningdek, ularning tuzilmaviy, morfologik va optik xususiyatlariga γ -nurlanish taʼsirini tadqiq qilish boʻyicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

$5 \cdot 10^6$ rad γ -nurlanish taʼsirida p - $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarida shakllangan nanokristallitlar oʻlchamlarining kichrayishi tufayli solishtirma qarshiligi $\rho = 16,2$ Om·sm dan $12,7$ Om·sm gacha hamda asosiy zaryad tashuvchilarning harakatchanligi $\mu = 0,31$ sm²/V·s dan $0,18$ sm²/V·s gacha kamayishi, ularning konsentratsiyasi esa $n = 1,83 \cdot 10^{18}$ dan $2,64 \cdot 10^{18}$ sm⁻³ gacha ortishi kabi ilmiy natijalar va ularni aniqlash usullaridan “FOTON” AJda ishlab chiqariladigan yarimoʻtkazgichli elektron qurilmalar tayyorlashda foydalanilgan (“FOTON” AJ, 2025-yil 17-mart, №45-sonli maʼlumotnoma). Olingan ilmiy natijalardan foydalanish elektron texnika asboblari tajriba namunalarini tayyorlash hamda ularning elektrofizik xossalarini yaxshilash imkonini bergan.

Kremniy tagliklari (100) kristallografik yoʻnalishga mansub, panjara doimiylari $a = b = 0,3265$ nm va $c = 0,5212$ nm boʻlgan geksagonal elementar katakchalardan tashkil topgan $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarini ultratovushli sprej-piroliz usulida oʻstirish, shuningdek, mazkur plyonkalarda γ -nurlanish taʼsirida vakansiyalar, dislokatsiyalar va chuqur sathli nuqsonlar miqdorining ortishi tufayli taqiqlangan soha kengligining $3,26$ eV dan $3,19$ eV gacha kamayishini aniqlash usullari Andijon davlat pedagogika instituti professori Sh.X.Yoʻlchiyev muallifligidagi “Yarimoʻtkazgichlarda atomlar diffuziyasi” nomli oʻquv qoʻllanmada foydalanilgan (Andijon davlat pedagogika instituti, 2025-yil 5-may, №04-394-sonli maʼlumotnoma). Olingan ilmiy natijalar talabalarning zamonaviy yarimoʻtkazgichlar fizikasiga tegishli terminologik tushunchalarini kengaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 18 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 10 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Natijalar asosida jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zOAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 11 ta maqola, shuningdek, 4 tasi Scopus ma'lumotlar bazasiga kiritilgan xorijiy jurnallarda nashr qilingan hamda tadqiqot mavzusi bo'yicha 1 ta EHM uchun dasturiy guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 124 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi qisqacha asoslab berilgan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan mosligi ko'rsatilgan. Dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari qisqacha ifoda etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati aniqlangan, tadqiqot vazifalarining bajarilishi va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining "**ZnO metalloksid plyonkalarining o'tkazuvchanlik turiga ta'sir etuvchi kirishmalar klassifikatsiyasi**" nomli birinchi bobida ZnO asosidagi metalloksid yupqa qatlamlarining noyob fizik xususiyatlari (yuqori shaffoflik, keng taqiqlangan soha, kuchli lyuminessensiya va radiatsiyaga barqarorlik) hamda ularni zamonaviy optoelektronika, quyosh elementlari, fotoelektrik qurilmalar va sensorlar kabi ko'plab texnologik sohalarda muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyatlari haqidagi adabiyotlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, ZnO qatlamida kirishma atomlarini boshqarish hamda bunday plyonkalarining morfologik va elektrofizik xususiyatlarini turli texnologik usullar orqali shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinib, ular asosida yangi avlod energiya konvertorlari, fotoelektrik va sensor qurilmalarini yaratish istiqbollari muhokama qilingan. Bundan tashqari, metalloksid yupqa qatlamlarning yarimo'tkazgichli yorug'lik diodlari (elektr energiyasini yorug'lik nurlanishiga aylantiruvchi), quyosh elementlari (yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi), gaz sensorlari va fotokatalitik qurilmalar kabi zamonaviy texnologiyalarda keng qo'llanilayotgani ta'kidlangan. Shu bilan birga, ZnO tarkibiga kirishma atomlarini kiritish orqali uning elektr, fotoelektrik va optik o'tkazuvchanligi hamda energetik soha parametrlarini boshqarish imkoniyati mavjudligi qayd etilgan. Mazkur adabiyotlar tahliliga tayangan holda, dissertatsiya ishi doirasida tegishli ilmiy vazifalar belgilangan.

Dissertatsiya ishining "**ZnO_{1-x}S_x metalloksidlarining yupqa plyonkalarini o'stirish va tuzilmasini tadqiq qilish usullari**" nomli ikkinchi bobida S kirishma atomlari bilan legirlangan ZnO_{1-x}S_x metalloksid plyonkalarini kremniy tagliklariga o'stirish, texnologik jarayonning optimal shart-sharoitlarini aniqlash hamda hosil

boʻlgan qatlamlarning tuzilmaviy, morfologik va optik xususiyatlariga γ -nurlanish taʼsirini oʻrganishda qoʻllanilgan usullar haqida maʼlumotlar keltirilgan.

ZnO_{1-x}S_x plyonkalarini sintez qilish uchun ultratovushli sprej-piroliz usulidan foydalanildi. Plyonkalarni hosil qilishda prekursor sifatida rux atsetatining suvli eritmaları ishlatildi. Legirlashni amalga oshirish uchun rux atsetat eritmasiga belgilangan konsentratsiyada legirlovchi moddalar (tiokarbamid) qoʻshildi. Bu moddalar ZnO plyonkalarida *p*-tipdagi oʻtkazuvchanlikni taʼminlash uchun xizmat qiladi. Ultratovush taʼsiri ostida eritma qizimasdan bugʻ holatiga oʻtadi. Hosil boʻlgan bugʻ kremniy tagliklarining sirtiga choʻkadi. Tagliklar prekursorlarning termik parchalanishi uchun yetarli darajada qizdiriladi va ularning yuzasida ZnO_{1-x}S_x plyonkalari hosil boʻladi. Bu jarayonda sodir boʻladigan asosiy kimyoviy reaksiya quyidagicha ifodalanadi:



Natijada kremniy tagliklariga yotqizilgan, qalinligi taxminan 400 nm boʻlgan ZnO_{1-x}S_x metalloksid qatlamlaridan iborat namunalar olindi.

Hosil qilingan ZnO_{1-x}S_x plyonkalari va kremniy tagliklarining tuzilmaviy xususiyatlari Empyrean Malvern turidagi uchinchi avlod rentgen difraktometrida tahlil qilindi. Rentgenodifraksiyon oʻlchovlar Bregg–Brentano geometriyasida, $2\theta = 15^\circ$ dan 120° gacha boʻlgan diapazonda, 1 gradus/daqiqa skanerlash tezligida amalga oshirildi. Shuningdek, ZnO_{1-x}S_x plyonkalarining morfologiyasi va sirt relyefi JSM-IT200 (JEOL) skanerlovchi elektron mikroskop hamda Solver Next atom-kuch mikroskopi yordamida oʻrganildi. Plyonkalarining optik oʻtkazuvchanligi Cary Eclipse spektrofotometri orqali aniqlandi. Elektrofizik xususiyatlar HMS-7000 tizimida oʻlchandi. Barcha olingan spektrlar va tadqiqot natijalari OriginPro2022 dasturi yordamida tahlil qilindi.

Dissertatsiya ishining **“Ultratovushli sprej-piroliz usulida olingan ZnO_{1-x}S_x yupqa plyonkalarining tuzilmaviy hamda morfologik xossalari”** nomli uchinchi bobida kremniy asosidagi ZnO_{1-x}S_x yupqa plyonkalarining tuzilmaviy xossalari hamda ularga γ -nurlanishning taʼsiri, shuningdek, ZnO_{1-x}S_x yupqa plyonkalari sirtining morfologik topologiyasi va uni γ -nurlanish taʼsirida boshqarish imkoniyatlari haqidagi maʼlumotlar bayon qilingan.


1-rasmda kremniy tagligining rentgenogramma tasviri keltirilgan. Ushbu difraksiyon chizmada turli intensivlikka ega, selektiv tabiatga ega boʻlgan bir qator tuzilmaviy akslanishlar kuzatilgan boʻlib, ularning tuzilmaviy maʼlumotlari 1-jadvalda keltirilgan. Keltirilgan maʼlumotlar asosida taglikning yuza qismi kristallografik (100) yoʻnalishga mos kelishi aniqlangan. (400) akslanishning yuqori intensivligi ($\approx 0,7 \cdot 10^5$ imp/sek) va uning tor yarimkengligi ($\text{FWHM} \approx 9 \cdot 10^{-3}$ rad) taglik kristall panjarasining yuqori darajadagi mukammalligidan dalolat beradi. Bu esa taglikning kristall tuzilmasi yaxshi shakllangan va defektlar miqdori juda kamligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, (220), (311), (331) va (440) kabi boshqa kristallografik yoʻnalishlarga mos akslanishlar ham past intensivlikda namoyon boʻlgan. Ushbu akslanishlarning (400) akslanishga nisbatan zaifligi taglik hajmida

ma'lum miqdordagi mikroskopik buzilishlar, ya'ni kristall panjaradagi mahalliy nuqsonlar mavjudligidan dalolat beradi. Rentgenogrammada $2\theta = 18^\circ\text{--}59^\circ$ oralig'idagi burchakli sochilishlarda noelastik fonning oshgani esa kristall panjarada qoldiq elastik zo'riqishlar mavjudligini ko'rsatadi. Odatda, bunday zo'riqishlar, taglikka mexanik yoki kimyoviy ishlov berish natijasida paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, kichik burchakli ($2\theta \approx 20,4^\circ$) sochilishlarda keng diffuzion akslanish ($\text{FWHM} = 9,8 \cdot 10^{-2} \text{ rad}$) kuzatilgan bo'lib, bu kremniy va kislorod atomlari o'rtasidagi to'yinmagan kimyoviy bog'lar tufayli taglik yuzasida SiO_x fragmentlari shakllanganidan dalolat beradi.


1-jadval.
Kremniy tagligining rentgenogrammasida kuzatilgan akslanishlarning tuzilmaviy qiymatlari

№	Refleks	I, nis. birlik	2θ , grad	d, nm	FWHM, rad
1	Dif. sochilish (SiO_x)	239	20,4	0,4406	0,098
2	$(200)_{\text{Si}}$	7330	33,1	0,2717	0,0064
3	$(220)_{\text{Si}}$	168	47,1	0,1922	0,043
4	Dif. sochilish	151	47,32	0,1901	0,23
3	$(311)_{\text{Si}}$	100	55,75	0,1649	0,018
4	$(400)_{\text{Si}}$	69700	68,91	0,1366	0,0091
5	$(331)_{\text{Si}}$	134	75,6	0,1255	0,01
6	$(440)_{\text{Si}}$	60	105,46	0,0967	0,016

1-jadvaldagi (400) akslanish parametrlari asosida kremniy tagligining panjara doimiysi $a_{\text{Si}} = 0,5429 \text{ nm}$ ekanligi aniqlandi. 2-rasmda o'stirilgan ZnO yupqa plyonkasining rentgenogramma tasviri keltirilgan bo'lib, u taglik rentgenogrammasiga nisbatan sezilarli farq qiladi. Unda kichik burchakli sochilishlarda diffuzion akslanish namoyon bo'lgan. Ushbu diffuzion akslanish fonida $d/n = 0,2774 \text{ nm}$ tekisliklar oralig'ida $2\theta = 31,7^\circ$ da (111) kristallografik yo'nalishga, $d/n = 0,2723 \text{ nm}$ oralig'ida $2\theta = 32,97^\circ$ da (002) yo'nalishga hamda $d/n = 0,249 \text{ nm}$ oralig'ida $2\theta = 36,34^\circ$ da (101) kristallografik yo'nalishga mos keluvchi, yuqori intensivlikka ega selektiv tabiatli tuzilmaviy akslanishlar kuzatildi. Aynan (002) kristallografik yo'nalishga mos keluvchi akslanish chizig'ining yuqori intensivligi ($\sim 10^5 \text{ imp} \cdot \text{s}^{-1}$) va uning yarim kengligining ($\text{FWHM} = 2,62 \cdot 10^{-3} \text{ rad}$) torligi plyonkaning kristall panjarasi yuqori darajada mukammal ekanligidan dalolat beradi. Mazkur akslanishning eksperimental natijalar asosida o'stirilgan ZnO qatlamlari panjara parametrlari $a = b = 0,3221 \text{ nm}$ va $c = 0,5203 \text{ nm}$ bo'lgan $C6/mmc$ fazoviy guruhiga mansub va vyursit tuzilishini namoyon etuvchi geksagonal elementar katakchalardan tashkil topgani aniqlandi. Shuningdek, ushbu yuqori intensivlikka ega akslanish cho'qqisining yarim kengligi orqali subkristallit (blok) o'lchami $L \approx 67 \text{ nm}$ deb baholandi.



1-rasm. Kremniy tagligining rentgenogrammasi




2-rasm. ZnO yupqa plyonkasining rentgenogrammasi

Bundan tashqari plyonka rentgenogrammasida (102), (103) va (110) kristallografik yoʻnalish mansub boʻlgan kichik intensivlikdagi akslanishlar ham namoyon boʻlib, ular $L \approx 84$ nm oʻlchamdagi rux oksidi nanokristallitlariga tegishli ekanligidan dalolat beradi. Bunday nanotuzilmalar, odatda, taglik ($a_{Si} = 0,5429$ nm) va plyonka ($a = b = 0,3221$ nm va $c = 0,5203$ nm) kristall panjaralari oʻrtasidagi farq natijasida yuzaga keladi. Bu farqning miqdoriy bahosi quyidagi formula:

$$\xi = 2|a_s - a_f| / (a_s + a_f), \quad (2)$$

asosida 2% ni tashkil etishi aniqlandi.

3-a rasmda $ZnO_{1-x}S_x$ metalloksid qatlamining rentgenogrammasi keltirilgan boʻlib, u ZnO plenkasi rentgenogrammasidan sezilarli farq qiladi. (001) kristallografik yoʻnalish $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkasi tuzilmaviy xususiyatlarini shakllantiradi. (002) akslanish boʻyicha kristall panjara parametrlari $a = b = 0,3265$ nm va $c = 0,5212$ nm aniqlanib, matritsa qatlamining kristall panjarasida oʻzgarishlar kuzatilishi aniqlandi. Bu akslanishni tahlil qilish natijasida plyonkaning $P6_3mc$ fazoviy guruhiga mansubligi hamda geksagonal singoniyani namoyon etishi tasdiqlandi. Bundan tashqari, rentgenogrammada turli kristallografik yoʻnalishlarga mansub boʻlgan boshqa tuzilmaviy akslanishlar ham kuzatilgan boʻlib, ularning parametrlari 2-jadvalda keltirilgan turli yoʻnalishlar va akslanishlar $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkasining koʻp fazali yoki tarkibiy jihatdan murakkab tuzilmaga egaligini koʻrsatadi. Shuningdek, rentgenogrammada kichik va oʻrta burchaklarda kuzatilgan noelastik fon (noelastik fon) plyonka kristall panjarasidagi mikrobuzilishlar yoki mikrodeformatsiyalarning mavjudligidan dalolat beradi. 2-jadvalda keltirilgan maʼlumotlarni qayta hisoblashlar asosida $ZnO_{1-x}S_x$ nanokristallitlarining oʻlchami 50 nm dan 200 nm gacha ekanligi hamda panjara parametri $a_{ZnO:S} = 0,7598$ nm tengligi aniqlandi. 3-b rasmda $5 \cdot 10^6$ rad dozali γ -nurlanish bilan nurlantirilgan $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkasining rentgenogrammasi keltilgan. Rentgenogrammaning kichik va oʻrta burchakli sochilishlarida kuzatilgan “noelastik fon” sathi taxminan 72% ga kamaygan, (002) akslanish intensivligi 13,8% ga pasaygan, (002) difraksion chizigʻi yuqori burchaklar tomon siljigan.




3-rasm. ZnO_{1-x}S_x yupqa plyonkalarining rentgenogrammalari: (a) nurlanishdan oldin va (b) keyin

Bu esa o‘z navbatida γ -nurlanish ta‘sirida plyonkada mikrotuzilmaviy o‘zgarishlar ro‘y berganligini ko‘rsatadi. 2-jadvaldagi kattaliklar yordamida nurlanishdan keyingi ZnO_{1-x}S_x plyonkasining kristall panjara $a = b = 0,3246$ nm va $c = 0,5187$ nm tengligi aniqlandi. Bu qiymatlar nurlanishdan avvalgi parametrlardan ($a = b = 0,3265$ nm; $c = 0,5256$ nm) biroz kichikroq bo‘lib, γ -nurlanish tasirida panjara qisqarishi sodir bo‘lganini anglatadi.


2-jadval.

ZnO-S/Si va γ -ZnO-S/Si namunalariining rentgenogrammalarida kuzatilgan akslanishlarning tuzilmaviy qiymatlari

№	Refleks	ZnO-S/Si		γ -ZnO-S/Si		$\Delta\theta$
		I, nis. birlik	2 θ , grad	I, nis. birlik	2 θ , grad	
1	111	239	20,081	150,9	20,1	0,019
2	100	203	31,86	72	31,79	0,07
3	002	416,63	34,19	264	34,29	0,1
4	101	214,15	35,93	168,3	36	0,07
5	102	181,45	47,45	103,6	47,47	0,02
6	110	124,8	56,79	66,6	56,87	0,08
7	333	179	61,61	128,9	61,68	0,07
8	103	131	62,53	91,6	62,64	0,11
9	200	117,6	66,42	90,6	66,49	0,07
10	112	192	68,59	109,5	68,68	0,09
11	201	159	69,31	110	69,37	0,06
12	004	123	72,28	88,5	72,31	0,03
13	202	127,7	77,5	89,4	77,6	0,1
14	104	79	81,2	54	81,23	0,03
15	203	55,8	89,49	41	89,59	0,1
16	211	55,3	96,35	39,7	96,4	0,05
17	212	66	103,56	45,2	103,66	0,1




4-rasm. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari sirtining uch o‘lchovli (a) va bir o‘lchovli (b) AKM tasvirlari




5-rasm. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari sirtida hosil bo‘lgan nanoobyektlarning balandligi bo‘yicha taqsimot gistogrammasi

Shunday qilib, γ -nurlanish ta‘sirida $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkasida fazaviy va tuzilmaviy o‘zgarishlar (difraksiyon chiziqlar intensivligi pasaygan, yarim kenglik torlashgan va yuqori burchaklar tomon siljishi) kuzatilgan. Bu o‘zgarishlar panjara parametrlari ($a \approx 0,7533$ nm) va nanokristallit o‘lchamlarining kamayishini anglatadi. 4-rasmda $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari sirtining uch o‘lchovli (a) va bir o‘lchovli (b) AKM tasvirlari keltirilgan bo‘lib, ularda nanoobyektlarning shakllangani namoyon bo‘lgan. Ularning o‘rtacha balandligi 30÷35 nm bo‘lib, plyonka yuzasi turli o‘lchamdagi orolsimon tuzilmalardan iborat ekani ko‘rinadi. 5-rasmdagi gistogramma ma‘lumotlaridan ma‘lum bo‘lishicha, nanoobyektlarning yarmiga yaqini 15÷25 nm oralig‘idagi balandlikka ega bo‘lib, bu nisbatan bir xillikni anglatadi. Olib borilgan AKM tadqiqotlariga ko‘ra, nanoobyektlar zichligi $2,9 \cdot 10^{11}$ sm^{-2} ni tashkil etgan.




6-rasm. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari sirtining γ -nurlanishdan keyingi uch o‘lchovli (a) va bir o‘lchovli (b) AKM tasvirlari




7-rasm. γ -nurlanishdan keyingi namunalarning sirtida hosil bo‘lgan nanoobyektlarning balandligi bo‘yicha taqsimot gistogrammasi


6-rasmda γ -nurlanish ($5 \cdot 10^6$ rad) ta'siridagi $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari yuzasining AKM tasviri keltirilgan. Bu, yuqori darajada tartiblangan va mukammal strukturaga ega plyonkalar hosil bo'lishini ta'minlaydi (8-rasm). 9-rasmda berilgan EDS spektr tahlili natijalariga ko'ra, plyonka yuza qismida Zn, O, S va C elementlari mos ravishda 0,4989; 0,4543; 0,0366; 0,0101 nisbiy ulushda taqsimlangan. Bu natijalardan ko'rinib turibdiki, plyonka tarkibida asosiy elementlar sifatida rux va kislorod saqlanib qolgan, shu bilan birga 3,66 at.% atrofidagi oltingugurt (S) miqdori materialning S bilan muvaffaqiyatli legirlanganini tasdiqlaydi. Kam miqdordagi uglerodning mavjudligi esa organik moddalar qoldig'i yoki atmosferadan yuzaga adsorbsiyalangan moddalar bilan izohlanishi mumkin. Ushbu tarkibiy ma'lumotlar plyonkaning kimyoviy bir xilligini va birlamchi maqsadga erishilganligini ko'rsatadi.




8-rasm. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari sirtining SEM tasviri.



9-rasm. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarining EDS spektri



10-rasm. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalari sirtining SEM tasviri.



11-rasm. $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkalarining EDS spektri

10-rasmda γ -nurlanishning $5 \cdot 10^6$ rad dozasi bilan ishlov berilgan $ZnO_{1-x}S_x$ plyonkasi SEM tasviri keltirilgan. Tasvirdan ma'lum bo'lishicha, nurlanish nanokristallitlar o'lchamlarining kamayishiga olib kelgan. Bu esa γ -kvantlari

ta'sirida yangi nanotuzilmalar shakllanishiga hamda kristallik darajasi va morfologik xossalarning o'zgarishiga sabab bo'lgan. 11-rasmda nurlangandan keyingi EDS spektri tasvirlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, Zn, S, O va C elementlarining intensiv cho'qqilari taxminan to'rt baravar oshgan, ammo ularning atom tarkibi o'zgarmagan. Bu holat plyonka sirt maydonining kengaygani va rentgen nurlarining sochilish yuzalarining ko'paygani bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishining "**Oltinugurt bilan legirlangan ZnO plyonkalarining optik va elektrofizik xususiyatlariga γ -nurlanishlar ta'siri**" nomli to'rtinchi bobida p-ZnO:S/n-Si geterotuzilmalarning elektrofizik hamda fotoelektrik xossalari γ -nurlanishlarning ta'siri bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalarining muhokamalari keltirilgan.

Olingan natijalarning tahlillariga ko'ra $5 \cdot 10^6$ rad dozali γ -nurlanishidan so'ng p-ZnO:S plyonkalarining elektrofizik xususiyatlari yaxshilangan. γ -nurlanishidan oldin mazkur plyonkalarining solishtirma qarshiligi $\rho = 16,2 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, zaryad tashuvchilar konsentratsiya $n = 1,83 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ va harakatchanligi $\mu = 0,31 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ larni tashkil qilgan. $5 \cdot 10^6$ rad γ -nurlari bilan nurlantirilgan p-ZnO:S plyonkalarida solishtirma qarshilik $\rho = 12,7 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ gacha tushgan, zaryad tashuvchilar harakatchanligi $\mu = 0,18 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ gacha kamaygan, ularning konsentratsiyasi esa $n = 2,64 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ gacha oshgan. Ushbu o'zgarishlar γ -kvantlar bilan nurlantirilganda plyonkada elektron va kovaklarning rekombinatsiya jarayoniga ta'sir qiluvchi nuqsonlar hosil bo'lishi bilan izohlanadi. Yuqorida keltirganimizdek, rentgen difraksiyasi va elektron mikroskop tahlillari asosida γ -nurlanishidan so'ng $\text{ZnO}_{1-x}\text{S}_x$ plyonkalarida nanokristallitlar hajmining kichrayishi aniqlangan. Nanokristallitlar hajmining kichrayishi kristallitlar chegaralari sonining ortishiga olib keladi, natijada elektronlarning o'rtacha erkin yugurish yo'li qisqaradi. Bu hodisa esa, o'z navbatida, zaryad tashuvchilar harakatchanligining pasayishiga sabab bo'ladi.


Tadqiqotlar mobaynida $\text{ZnO}_{1-x}\text{S}_x$ plyonkalari optik xususiyatlarini o'rganish uchun ultratovushli sprej-piroliz usuli yordamida yupqa plyonkalar shisha tagliklarga ham o'stirildi. Shishaning 300÷350 nm diapazondagi yutilishi nisbatan yuqori bo'lishi, 400 nm dan ortiq to'lqin uzunliklarda 85÷90% gacha shaffoflikni namoyon etadi. Shu sababli, $\text{ZnO}_{1-x}\text{S}_x$ plyonkalari shisha tagliklarga o'stirilganda (o'zi 300–350 nm atrofida kuchli yutilish ko'rsatadi) uning xususiyatlarida nisbatan o'zgarishlar yuzaga keladi.

12-rasmda shisha taglikning Taus grafigi tasvirlangan bo'lib, unda $(ahv)^n$ ga (fotonning energiyasiga) bog'liq ravishda o'lchangan nuqtalari aks ettirilgan. Grafikdan yutilish koeffitsiyenti (α) va foton energiyasiga (hv) tayanadigan holda shishaning taqiqlangan soha kengligi (E_g) ni hisoblab chiqish mumkin. Grafikda past energiya (hv kichik) diapazonida $(ahv)^n$ qiymatlari nolga juda yaqinligicha qolib, energiya oshib borganda juda keskin o'sib borishi ko'rinadi. Taus usulida yutilish spektrining keskin o'suvchi qismi grafikda to'g'ri chiziq shaklida ifodalanadi. Ushbu chiziqni x-o'q tomon pastga qarab cho'zsak (x-o'qiga urinma o'tkazsak), u x-o'qni kesgan nuqtada optik taqiqlangan soha kengligi (E_g) hosil bo'ladi. Bu qiymat grafikda ko'rinmasa-da, chiziq davomiga asoslanib aniqlanadi. Shisha materiallarida odatda $E_g \approx 3,8\div 3,9 \text{ eV}$ atrofida bo'lishi kutiladi. Mazkur holatda ham


taglik shisha uchun $E_g \sim 3,92$ eV qiymati aniqlandi. Bu qiymat shisha uchun mos, chunki shisha ultrabinafsha nurlarni kuchli yutadi va ko‘rinuvchi diapazonda shaffof bo‘ladi.

